

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmatova Zarifa Abduraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDASH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA‘SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI.....	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина Нуриддиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmurotovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O'tkironovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA).....	114
23. Xasanova Mavlyuda Batiyralievna ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O'LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE'RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA'MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



Mirvaliyeva Dildora Anvarovna
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA'MINOTI .HUJJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.18734104>

ANNOTATSIYA

Davlat tizimining barcha bo'g'inlarini hujjatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki uning faoliyati aynan ana shu hujjatlar yordamida tartibga solib turiladi va harakatga keltiriladi. Ish yuritish, hujjatlar almashinishi elektron tarzda ham amalga oshiriladi. Elektron hujjat texnika vositalari, axborot tizimi xizmatlari va axborot texnologiyalaridan foydalanib tuziladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Kalit so'zlar: ish yuritish, hujjat, elektron hujjat, elektron hujjat aylanishi, rekvizitlar, o'zbek tili.

Мирвалиева Дилдора Анваровна
Преподаватель Национального университета Узбекистана

ЭЛЕКТРОННАЯ ПОДДЕРЖКА ТЕКСТОВ ИНФОРМАЦИОННОГО СТИЛЯ НА ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ. ОРФОГРАФИЯ И ПУНКТУАЦИЯ В ДОКУМЕНТАЦИИ

АННОТАЦИЯ

Все звенья государственной системы невозможно представить без документов. Ведь её деятельность регулируется и реализуется именно с помощью этих документов. Деловое администрирование, документооборот также осуществляются в электронном виде. Электронный документ создается, обрабатывается и хранится с использованием технических средств, услуг информационных систем и информационных технологий.

Ключевые слова: деловое администрирование, документ, электронный документ, электронный документооборот, реквизиты, узбекский язык.

Mirvaliyeva Dildora Anvarovna
Teacher of the National University of Uzbekistan

ELECTRONIC SUPPORT OF INFORMATION STYLE TEXTS IN THE STATE LANGUAGE. SPELLING AND PUNCTUATION IN DOCUMENTATION

ABSTRACT

All links of the state system cannot be imagined without documents. Because its activities are regulated and put into action precisely with the help of these documents. Business administration,

document exchange is also carried out electronically. An electronic document is created, processed and stored using technical means, information system services and information technologies.

Keywords: business administration, document, electronic document, electronic document management, requisites, Uzbek language.

Ish yuritishning asosini hujjatlar tashkil etadi. Har qanday hujjat muayyan axborotni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hujjatlar almashinishi, ish yuritish elektron tarzda ham amalga oshiriladi. Elektron hujjat aylanishi elektron hujjatlarni internet orqali jo'natish va qabul qilib olish elektron hujjat aylanishi demakdir. Turli xil bitim va shartnomalar tuzishda, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirishda, rasmiy va norasmiy yozishmalarni olib borishda, qolaversa, hujjatlarni uzatishda elektron hujjat aylanishidan foydalaniladi. Elektron hujjat qog'oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi. Elektron hujjatlar elektron shaklda qayd etiladi, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi va elektron hujjatni identifikatsiya qilish imkonini beradigan o'z rekvizitlariga ega hisoblanadi. Elektron hujjat texnika vositalari, axborot tizimlari xizmatlari va axborot texnologiyalaridan foydalanib tuziladi, saqlanadi va ishlov beriladi. Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining uni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda tuzilishi lozim.

Elektron hujjat quyidagi majburiy zaruriy qismlardan iborat:

- 1) elektron raqamli imzo;
- 2) elektron hujjatni jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo'natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasmi;
- 3) elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili;
- 4) hujjat yaratilgan sana [9].

Qonun hujjatlarida yoki elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining kelishuvi bilan elektron hujjatning boshqa rekvizitlari ham belgilanishi mumkin. Elektron hujjatni saqlash muddati, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shunga o'xshash maqsadlarga mo'ljallangan qog'oz hujjat uchun belgilangan muddatdan kam bo'lmasligi kerak. Elektron hujjat aylanish tizimi orqali ish yuritishni va ijro nazoratini amalga oshirayotgan tashkilotlarda munosabat belgisi **O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonuni. 2004-yil 29-aprel.** Hujjat turlari va xususiyatlari elektron shaklda ham ko'rsatilishi mumkin. Davlat xizmati markazlarida va yagona darcha xizmatlarida elektron hujjat yuritish yo'lga qo'yilgan [10].

Keyingi yillarda hujjatlarning elektron shakldagi nusxalarini O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - «**lex.uz**»ga joylashtirish amaliyoti shakllandi. Unda O'zbekiston Respublikasi miqyosida amal qiladigan qonun, farmon, qaror, farmoyish, kodeks, nizom, yo'riqnoma, uslubiy ko'rsatma, dastur, buyruq, ro'yxat, doktrina, deklaratsiya va yana boshqa ko'plab hujjatlar elektron shaklda joylashtirilgan. Mazkur tizimni joriy qilinishi aholining huquqiy ongini o'stirish bilan birga, istalgan joyda kerakli hujjat namunalari bilan tanishish imkonini bermoqda [2.23].

Aytish lozimki, yaqin o'tmishimizda barmoq bilan sanarli miqdordagi hujjatlar o'zbek tilida yozilgan. Ammo bu hujjatlarning tilini sof o'zbekcha deb aytish ancha qiyin. Yaqin-yaqinlargacha "Berildi ushbu spravkani falonchiyevga shul haqdakim, haqiqatan ham bu o'rtoq shul joyda yashab turadi" qabilidagi 20-yillarda rus tilidan andoza olish tufayli paydo bo'lgan, ya'ni shaklan o'zbekcha ma'lumotnomalar yozib kelindi. Rus tilida mazkur matnning asli "Дана настоящая справка Иванову в том, что товарищ Иванов действительно проживает по такому-то адресу" tarzida bo'lib, bu matn til nuqtayi nazaridan benihoya tugal, lo'nda va benuqson. Ammo o'zbek tilida ayni so'z tartibini saqlashning o'ziyoq o'zbek tilining tabiatiga mutlaqo zid. Rus tilidan andoza olish (aytish kerakki, bunday hol boshqa tillarda, masalan, tatar tilida ham kuzatiladi), biron-bir darajada bo'lsin, o'zini oqlay olmaydi [2.12].

O'zbek tilidagi hujjatchilikni takomillashtirishda mavjud tajribalardan ko'z yumib bo'lmaydi. Hozirgi kunda amaliyotda «qonun», «farmon», «qaror» so'zlarini ularning nomlaridan keyin ba'zan bosh harf bilan, ba'zan kichik harf bilan yozish holatlari uchramoqda. Aslida, O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan e'lon qilingan qonun, farmon va qarorlar oliy tashkilot va oliy mansab egasi nomidan e'lon qilingani sababli ularning

nomlaridan keyin keladigan «qonun», «farmon», «qaror» soʻzlari bosh harfda yozilishi kerak. Masalan: «Davlat tili haqida»gi Oʻzbekiston Respublikasi **Qonuni**. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21 -oktyabrdagi «Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi **Farmoni**. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi «Oʻzbekiston tarixi» telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi **Qarori** [2.11].

Ish yuritishda, albatta, oʻzbek tilining oʻz qonun-qoidalariga rioya qilish kerak. Kichkinagina bir misol: bizda oʻzbek tilida bitilgan hujjatlarda uning sanasini koʻrsatish, masalan, «12-oktyabr 1989-yil» tarzida yozish rus tilidan koʻchirish oqibatida odat boʻlib qolgan. Rus tilida «12 октября 1989 года» tarzida yoziladi va bu rus tilining tabiati va qonuniyatlariga toʻla muvofiq keladi. Ayni iboraning oʻzbek tilidagi maʼnosi ham aslida «1989-yilning 12-oktabri» demakdir. Shunday ekan, oʻzbek tilining oʻz tabiati va qonun-qoidalar asosida «1989-yilning 12-oktabri» yoki juda boʻlmaganda, «1989-yil 12-oktabri» tarzida yozish kerak. Bu-kubir misol. Hujjatlarda soʻz va gap tartibi bilan aloqador, soʻz qoʻllash bilan bogʻliq juda koʻp muammolar borki, ularni faqat ayni til tabiatidan kelib chiqib hal etmoq lozim [2.12].

Rasmiy-idoraviy hujjatlarni tayyorlashda uning zaruriy qismlari joylashishiga, matn mazmuni tarkibiy qismlarining ketma-ketligiga, tinish belgilarining toʻgʻri qoʻyilishiga alohida eʼtibor berish lozim. Shu maqsadda quyidagilarga doimo amal qilishni unutmang:

— bosma harflarda yoziladigan hujjat nomida barcha harflar katta harflar bilan yozilishi kerak. Masalan: Tavsiyanoma emas, TAVSIYANOMA kabi;

— hujjat yuboriladigan muassasaning nomi qisqartirilmasdan toʻliq, bosh harflar bilan yozilish qoidalariga amal qilgan holda yoziladi;

— hujjat matnining asosiy qismlari xatboshi bilan yozilishi lozim. Qoʻshimcha qismlar asosiy fikrga bogʻlangan tarzda undan soʻng beriladi;

— shaxsiy hujjatlarda izohlanayotgan «Men» soʻzidan va izoh soʻz birikmasidan soʻng **vergul** qoʻyiladi. Masalan: Men, Mahmud Qodirov, ... Hujjat tayyorlash va ish yuritishda imlo meʼyorlariga va tinish belgilarining toʻgʻri qoʻyilishiga qatʼiy amal qilish lozim. Hujjat matnida vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, qavs, tire nisbatan faol ishlatiladi.

Unutmangki, hujjat nomi va matn sarlavhasidan keyin nuqta qoʻyilmaydi. Vergul hujjat matnida qoliplangan kirish birikmalaridan soʻng, uyushiq va ajratilgan boʻlaklar, orasida, izohlovchi bilan izohlanmish oʻrtasida qoʻllanadi. Masalan: «Shuni hisobga olib, ...», «Men, 2-kurs talabasi Umida Ikrom qizi, ...», kabi [1].

Nuqtali vergul izohlanayotgan voqea-hodisa, narsalarning tartib raqami qavs bilan ajratilgan soʻz, birikma va gaplardan soʻng qismlari mazmunan farqlanuvchi qoʻshma gaplar tarkibida ishlatiladi. Masalan: Talabaning majburiyatlari: 1) oʻquv yurti Nizomiga amal qilish; 2) dars va boshqa oʻquv mashgʻulotlarida faol qatnashish va boshqalar.

Ikki nuqta hujjatlar matnida quyidagi holatlarda qoʻyiladi: — matn tarkibida izohlanayotgan, sanalayotgan boʻlaklardan oldingi umumlashtiruvchi «quyidagilar», «shu haqda» kabi soʻzlaridan oldin; — farmoyish hujjatlarida «Buyuraman» soʻzidan, bayonnomaning «Kun tartibi», «Eshitildi», «Soʻzga chiqdilar», «Qaror qilindi» kabi zaruriy qismlaridan soʻng; — matnning «Asos», «Ilova» kabi qismlaridan keyin.

Qavs hujjat matnining biror boʻlagiga qoʻshimcha izoh berish zarurati boʻlganda qoʻllanadi. Bunda izohlovchi soʻz, manzil nomi, mablagʻ yoki miqdoriy koʻrsatkichni ifodalovchi raqam qavs ichida berilishi lozim. Masalan: 8500 (sakkiz ming besh yuz) soʻmlik.

Tire quyidagi holatlarda qoʻyiladi: — izohlanmish bilan izohlovchi oʻrtasida. Masalan: Javobgar – marhumning tugʻishgan singlisi. — ajratilgan gap boʻlaklari oʻrtasida. Masalan: Onasinikiga – Buxoro shahar, Yangiyer koʻchasidagi 50-uyda yashovchi Muyassar Qayumovanikiga koʻchib ketgan [1.4].

Aksariyat qonun va qarorlar rus tilida yaratilib, oʻzbek tiliga zoʻrma-zoʻraki oʻgiriladi. Hisobotlar va turli hujjatlar ayrim vazirlik, idoralarda hozirgacha davlat tilida tayyorlanmasligini qanday izohlash mumkin?!

Buning uchun Davlat tili haqidagi Qonunni qayta koʻrib chiqish asosida xalq

muhokamasidan o'tkazish, Vazirlar mahkamasi huzurida bir paytlari tashkil etilgan Atamaqo'mni qayta tiklash, tuman, shahar va viloyatlarda davlat tilining barcha jarayonlari to'la va to'g'ri amal qilishini muntazam ravishda nazorat qilib boruvchi, monitoring qiluvchi jamoatchilik komissiyalarini tuzish davr talabi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva P, Narzullayeva S. <https://cyberleninka.ru/article/n/ish-hujjatlari-va-ularga-qo-yiladigan-asosiy-talablar>
2. Aminov M., Madvaliyev A. va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish. - T.:O'zbekiston,2021.
3. Qodirov K. Mehnatga oid hujjatlarni rasmiylashtirish namunalari.
4. Tojiev M., Ne'matov N., Ilxomov M. "Yangi asr avlodi" muhofazasi.- 2005. 5. Jo'rayev Z. Zamonaviy davlat ish yuritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash.-T.:Tafakkur bo'stoni, 2011
6. Xamidov A. Davlat tilida ish yuritish.-T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/ish-hujjatlari-va-ularga-qo-yiladigan-asosiy-talablar>
8. www.ziyo.edu.uz
9. <https://arxiv.uz>
10. <https://lex.uz/docs/-165079>
11. <https://muhaz.org/6-mavzu-ish-yuritish-tili-va-uslub-hujjat-turlari-va-xususiya.html>



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000